

**ABU RAYHON BERUNIY NOMIDAGI URGANCH DAVLAT
UNIVERSITETI HUZURIDAGI ILMIY DARAJALAR BERUVCHI
PhD.03/30.09.2020.FM.55.04 RAQAMLI ILMIY KENGASH**

**BERDAQ NOMIDAGI QORAQALPOQ DAVLAT UNIVERSITETI
ISLOM KARIMOV NOMIDAGI TOSHKENT DAVLAT TEXNIKA
UNIVERSITETI**

ISMAILOV TIMUR BAXRAMOVICH

**NIKEL VA MARGANES KIRISHMA ATOMLARI BILAN LEGIRLANGAN
KREMNIYNING MAGNIT XUSUSIYATLARI**

01.04.10 – Yarimo‘tkazgichlar fizikasi

**FIZIKA-MATEMATIKA FANLARI BO‘YICHA FALSAFA DOKTORI (PhD)
DISSERTATSIYASI AVTOREFERATI**

Urganch – 2025

**Fizika-matematika fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD)
dissertatsiyasi avtoreferatining mundarijasi**

**Оглавление автореферата диссертации доктора философии (PhD)
по физико-математическим наукам**

**Contents of dissertation abstract of doctoral philosophy (PhD)
on physical-mathematical sciences**

Ismailov Timur Bahramovich

Nikel va marganes kirishma atomlari bilan legirlangan kremniyning magnit xususiyatlari..... 3

Исмаилов Тимур Бахрамович

Магнитные свойства кремния, легированного примесными атомами никеля и марганца..... 23

Ismailov Timur Bahramovich

Magnetic properties of silicon doped with impurity atoms of nickel and manganese..... 43

E‘lon qilingan ishlar ro‘uxati

Список опубликованных работ
List of published works..... 47

**ABU RAYHON BERUNIY NOMIDAGI URGANCH DAVLAT
UNIVERSITETI HUZURIDAGI ILMIY DARAJALAR BERUVCHI
PhD.03/30.09.2020.FM.55.04 RAQAMLI ILMIY KENGASH**

**BERDAQ NOMIDAGI QORAQALPOQ DAVLAT UNIVERSITETI
ISLOM KARIMOV NOMIDAGI TOSHKENT DAVLAT TEXNIKA
UNIVERSITETI**

ISMAILOV TIMUR BAXRAMOVICH

**NIKEL VA MARGANES KIRISHMA ATOMLARI BILAN LEGIRLANGAN
KREMNIYNING MAGNIT XUSUSIYATLARI**

01.04.10 – Yarimo‘tkazgichlar fizikasi

**FIZIKA-MATEMATIKA FANLARI BO‘YICHA FALSAFA DOKTORI (PhD)
DISSERTATSIYASI AVTOREFERATI**

Urganch – 2025

Falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi mavzusi O'zbekiston Respublikasi Oliy ta'lim, fan va innovatsiyalar vazirligi huzuridagi Oliy attestatsiya komissiyasida B2024.3.PhD/FM813 raqam bilan ro'yxatga olingan.

Dissertatsiya Berdaq nomidagi Qoraqalpoq davlat universiteti va Islom Karimov nomidagi Toshkent davlat texnika universitetlarida bajarilgan.

Dissertatsiya avtoreferati uch tilda (o'zbek, rus, ingliz (rezyume)) Ilmiy kengash veb-sahifasida (<https://urdu.uz/uz>) hamda "ZiyoNet" Axborot-ta'lim portalida (www.ziyounet.uz) joylashtirilgan.

Ilmiy rahbar: Zikrillayev Nurulla Fatxullayevich
fizika-matematika fanlari doktori, professor

Rasmiy opponentlar: Gulyamov Gafur
fizika-matematika fanlari doktori, professor

Razzakov Alijon Shonazarovich
fizika-matematika fanlari doktori, professor

Yetakchi tashkilot: Samarqand davlat universiteti

Dissertatsiya himoyasi Abu Rayhon Beruniy nomidagi Urganch davlat universiteti huzuridagi ilmiy darajalar beruvchi PhD.03/30.09.2020.FM.55.04 raqamli Ilmiy kengashning 2025-yil "11" iyul soat 10:00 dagi majlisida bo'lib o'tadi (Manzil: 220100, Urganch sh., H.Olimjon ko'chasi, 14-uy (Tel.: (998-62) 224-67-00, Faks: (998-62) 224-66-16 Web-site: www.urdu.uz, e-mail: info@urdu.uz) universiteti majlislar zali).

Dissertatsiya bilan Urganch davlat universitetining Axborot-resurs markazida tanishish mumkin (818 raqami bilan ro'yxatga olingan). Manzil: 220100, Urganch sh., H.Olimjon ko'chasi, 14-uy (Tel.: (998-62) 224-67-00, Faks: (998-62) 224-66-16 Web-site: www.urdu.uz e-mail: arm@urdu.uz

Dissertatsiya avtoreferati 2025 yil " 30 " iyun kuni tarqatildi.
(2025-yil " 30 " iyundagi 9 - raqamli reyestr bayonnomasi)



U.O.Kutliyev

Ilmiy daraja beruvchi ilmiy kengash raisi,
fizika-matematika fanlari doktori, professor

K.R.Yakubov

Ilmiy daraja beruvchi ilmiy kengash kotibi,
fizika-matematika fanlari nomzodi, dotsent

K.A.Ismaylov

Ilmiy daraja beruvchi ilmiy kengash qoshidagi
ilmiy seminar raisi, fizika-matematika fanlari
doktori, professor

KIRISH (falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasiga avtoreferat)

Dissertatsiya mavzusining dolzarbligi va zarurati. Jahonda qayta tiklanuvchi energiya manbalari, xususan, quyosh energiyasi asosida elektr energiyasini ishlab chiqarish XXI asrga kelib keng ko‘lamda rivojlanmoqda. Rivojlangan mamlakatlarda kremniy asosida diodlar, tranzistorlar, mikrochiplar, yuqori foydali ish koefitsientiga (22 % dan katta) ega quyosh elementlari, shuningdek, yuqori sezgirlikka ega magnit sensorlar va magnit diodlarni yaratish va amaliyotda foydalanish masalalariga alohida ahamiyat berilmoqda. Yarimo‘tkazgich kremniyni o‘tish guruhi elementlarining atomlari (Ni va Mn) bilan legirlash uni mikroelektronikada qo‘llash imkoniyatlari sezilarli darajada kengaytirish imkonini beradi, chunki bu elementlar kremniy kristall panjarasida magnit va elektr faol tuzilmalarni shakllantiradi. Bunday texnologik yechim shu kabi olib borilayotgan ilmiy tadqiqotlarning samaradorligini oshirib noyob magnit va elektrofizik xususiyatga ega tubdan yangi kremniy materiallarni olishga alohida e‘tibor qaratilmoqda.

Jahonda hozirgi kunda kremniy zamoniy spintorinka va magnitoelektronikada asosiy material hisoblanadi. Dunyoning yetakchi mamlakatlarida Si asosidagi materiallarning magnit va magnitoptik xossalari yaxshilash maqsadida Ni va Mn atomlari bilan legirlangan strukturalar, xususan $MnSi_{1.7}$, $Si<B,Mn>$ va Ni-Si tarkibli birikmalar, implantatsiya hamda molekulyar nur dastali epitaksiya (MBE) texnologiyalari yordamida sintez qilinmoqda. Kremniy kristall panjarasida 1 nm – 1 mkm oralig‘ida shakllanuvchi ushbu strukturalar magnit tartiblanish va magnitoptik effektlarni (Kerr, Faradey) boshqarish imkoniyatlari tadqiq qilinmoqda. Ushbu yo‘nalishda, jumladan, materiallarning magnit xususiyatlariga harorat, magnit maydon va termik ishlov berishning ta’sirlarini o‘rganish yuqori texnologiyalarida qo‘llaniladigan qurilmalar uchun yangi funksional materiallarni ishlab chiqish va olishdagi tadqiqotlar ustuvor hisoblanmoqda. Dunyo ilmiy hamjamiyatida olib borilayotgan so‘nggi tadqiqotlar shuni ko‘rsatmoqdaki, nikel va marganes kirishma atomlari bilan legirlangan kremniyda ferromagnitlik holati, magnit momentlarning joylashuvi (M_s , M_r , H_c), magnit klasterlarning shakllanishi, hamda haroratga bog‘liq magnit susayish kabi holatlar hali to‘liq o‘rganilmagan. Ayniqsa, bu kirishmalar kremniy panjarasida qanday energetik afzallik bilan joylashishi (E_a), klasterlashgan holatdagi magnit o‘zaro ta’sirlar, hamda elektron spektrga ta’siri (l , s va j) - bugungi kunda fundamental va amaliy jihatdan ustuvor hisoblanmoqda.

Respublikamizda so‘nggi yillarda magnitoelektronika sohasini amaliyotda qo‘llashga alohida e‘tibor qaratilmoqda, shu munosabat bilan kirishma atomlarining klasterlari kremniyning fizik parametrlariga ta’sirini o‘rganish hamda magnit klasterlarga ega yangi ferromagnit materiallarni yaratish muhim ilmiy va amaliy ahamiyat kasb etadi. Yangi O‘zbekistonning 2022–2026-yillarga mo‘ljallangan Taraqqiyot strategiyasida innovatsion loyihalarni amalga oshirish uchun barcha yo‘nalishlarda keng imkoniyatlar yaratish, ilmiy izlanishlar va innovatsion tashabbuslarni qo‘llab-quvvatlashga qaratilgan zamonaviy mexanizmlarni joriy etish vazifalari belgilangan bo‘lib, ayniqsa, nanotexnologik yondashuvlarga asoslangan, iqtisodiy jihatdan arzon materiallardan foydalangan holda samarali texnologiyalarni ishlab chiqish va ularni chuqur tadqiq qilish hozirgi davrning eng dolzarb ilmiy

yo‘nalishlaridan biri sifatida e‘tirof etilmoqda. Mazkur jarayonlarda xalqaro hamkorlikning ahamiyati ortib bormoqda, xususan, O‘zbekiston va Malayziya o‘rtasidagi strategik sheriklik doirasida 2025 yil iyun oyida yarimo‘tkazgichlar, mikroelektronika va yuqori texnologiyalar sohasida ishlab chiqarish, ilmiy-tadqiqot ishlari hamda kadrlar tayyorlashni birlashtiruvchi qo‘shma loyihalarni yo‘lga qo‘yish bo‘yicha kelishuvga erishilgani muhim ahamiyat kasb etadi.

O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2025-yil 22-yanvardagi PQ-20-son “Elektrotexnika sanoatini rivojlantirishning yangi bosqichiga olib chiqish bo‘yicha qo‘shimcha chora-tadbirlar to‘g‘risida”gi Qarori, O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2021-yil 19-martdagi PQ-5032-son “Fizika sohasidagi ta‘lim sifatini oshirish va ilmiy tadqiqotlarni rivojlantirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi Qarori, shuningdek O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2023-yil 16-fevraldagi PQ-57-son “Qayta tiklanuvchi energiya manbalarini va energiya tejoyvchi texnologiyalarni joriy etishni jadallashtirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi Qarorida hamda mazkur faoliyatga tegishli boshqa me‘yoriy-huquqiy hujjatlarda belgilangan vazifalarni amalga oshirishga ushbu dissertatsiyani bajarishdagi tadqiqotlar muayyan darajada xizmat qiladi.

Tadqiqotning respublika fan va texnologiyalari rivojlanishining ustuvor yo‘nalishlariga mosligi. Mazkur dissertatsiya ishi O‘zbekiston Respublikasi fan va texnologiyalarni rivojlanishining III. “Energetika, energiya resurslarini tejash, transport, mashina va asbobsozlik, zamonaviy elektronikasi, mikroelektronikasi, fotonika, elektron asbobsozlikni rivojlantirish” ustuvor yo‘nalishlariga muvofiq bajarilgan.

Muammoning o‘rganilganlik darajasi. Dunyoning ilg‘or ilmiy-tadqiqot markazlarida, shuningdek, universitet va institutlarida (AQSH, Xitoy, Yaponiya, Germaniya, Janubiy Koreya, Rossiya) spintronika va magnitoelektronikada qo‘llash uchun mo‘ljallangan monokristalli kremniy olishning yangi texnologiyalarini yaratish bo‘yicha faol izlanishlar olib borilmoqda.

Hozirgi kunga qadar nikel va marganes kirishma atomlarining diffuziya mexanizmlari, ularning kristall panjaradagi joylashuvi, monokristall kremniyning magnit va elektrofizik xossalari ta‘siri, shuningdek, nanoklasterlar va komplekslar hosil bo‘lishining fizik mexanizmlari ko‘plab xorijiy olimlar, jumladan, M. Bolduc, C. Awo-Affouda, A. Stollenwerk (AQSH) va boshqalar tomonidan batafsil o‘rganilgan.

O‘zR FA akademiklari M. Baxodirxonov, S. Zaynabiddinov, R. Mo‘minov va A. Mamadalimov ilmiy maktablarida, shuningdek, professorlar Q. Abdurahmonov, Q. Ismaylov va E. Arziqulovning shogirdlari kremniy kristall panjarasiga turli kirishma atomlarni kiritish hamda olingan materiallarning elektrofizik, fotoelektrik, optik va shu jumladan magnit xossalari o‘rganish bilan bog‘liq muhim tadqiqotlar olib borganlar.

Marganets va nikel kirishma atomlari bilan legirlangan kremniy parametrlarini o‘rganishda erishilgan natijalarga qaramay, nanoklasterlar va komplekslar shakllangan monokristall kremniyning magnit va elektrofizik xususiyatlari hanzgacha yetarlicha o‘rganilmagan.

Dissertatsiya tadqiqotining dissertatsiya bajarilgan oliy ta‘lim muassasasining ilmiy-tadqiqot ishlari rejalari bilan bog‘liqligi.

Dissertatsiya tadqiqoti Qoraqalpoq davlat universiteti va Toshkent davlat texnika

universitetida O‘zbekiston Respublikasi Davlat ilmiy-tadqiqot ishlari dasturi hamda Turkiya bilan hamkorlikda AL-202102215 “Ferromagnit nano-klasterli Si bilan aylanna saraton hujayralarni tutib qoluvchi mikro suyuqlik kanalli integrallashgan tizim” mavzusidagi davlatlararo grant dasturi doirasida 2022-2024-yillarda bajarilgan.

Tadqiqotning maqsadi: Nikel va marganets kirishma atomlari bilan legirlangan kremniyning magnit xususiyatlarini o‘rganishdan iborat.

Tadqiqotning vazifalari:

marganets kirishma atomlari bilan legirlangan p - va n -tur o‘tkazuvchanlikka ega monokristall kremniyning magnit xususiyatlarini turli haroratlarda tadqiq qilish;

marganets kirishma atomlari bilan legirlangan kremniyning magnit xususiyatlariga bor kirishma atomlari bilan boyitilgan sirt qatlamning (p^+ qatlam) ta’sirini o‘rganish;

marganets kirishma atomlari bilan legirlangan kremniyning magnit xususiyatlari mexanizmlarini tushuntiruvchi fizik modelni ishlab chiqish;

nikel kirishma atomlari bilan legirlangan kremniyning magnit xususiyatlarini tadqiq qilish;

sirti teksturalangan, nikel kirishma atomlari bilan legirlangan kremniyda shakllangan klasterlarning konsentratsiyasini magnit xususiyatlariga ta’sirini o‘rganish;

Tadqiqotning obekti sifatida Choxraliskiy usuli bilan o‘stirilgan monokristall kremniy (Cz-Si, p -tur o‘tkazuvchanlikka ega) bor kirishma atomlarining konsentratsiyasi $N_p=(2 \cdot 10^{15} \div 4 \cdot 10^{16}) \text{ cm}^{-3}$, fosfor kirishma atomlari (Cz-Si, n -tur o‘tkazuvchanlikka ega) konsentratsiyasi $N_n=2 \cdot 10^{14} \div 3 \cdot 10^{15} \text{ cm}^{-3}$ hamda maxsus tayyorlangan p^+p strukturaga ega bo‘lgan monokristall kremniy namunalari olingan.

Tadqiqotning predmeti sifatida nikel va marganets kirishma atomlari bilan legirlangan kremniy namunalarning magnit va elektrofizik xususiyatlarining magnit maydon ta’sirida ($B=0 \div 9 \text{ T}$) va keng haroratlar oralig‘ida ($T=1,8 \div 400 \text{ K}$) o‘zgarishi, shuningdek, qo‘shimcha termik ishlov berishning turli rejimlarida keyingi magnit va elektrofizik parametrlarining o‘zgarishlari hisoblanadi.

Tadqiqotning usullari. namunalarning kimyoviy tarkibi, namunalar sirti va qalinligi bo‘ylab taqsimlanishini aniqlashda ikkilamchi ionlar mass spektrometriyasi va energo-dispersion rentgen spektroskopiya usullaridan, namunalar sirtining relyefini aniqlashda skanerlovchi elektron mikroskopiya va atom kuch mikroskopiya usullaridan, zaryad tashuvchilarning harakatchanligini aniqlashda Xoll usulidan, namunalarning optik xossalarini aniqlashda infraqizil mikroskopiya usullaridan, namunalarning asosiy magnit parametrlarini aniqlashda o‘ta o‘tkazuvchan magnetometriya usullaridan foydalanilgan.

Tadqiqotning ilmiy yangiligi quyidagilardan iborat:

namunalarning magnit parametrlarini boshqarish imkonini beruvchi kremniy kristallining hajmiy va sirtga yaqin qatlamlarida nikel hamda marganes kirishma atomlarining magnit nanoklasterlarini hosil qiluvchi yangi texnologiya ishlab chiqilgan;

marganes kirishma atomlari bilan legirlangan n -tur o‘tkazuvchanlikdagi kremniyda gisterezis hodisalari va magnit qarshilik yo‘qligi kuzatildi, bu zaryad tashuvchi elektronlarning marganesning magnit momentlari bilan o‘zaro ta’sirining

kichik darajaga bo'lishi bilan tushuntirilgan;

ilk bora p^+ -Si<B,Mn> strukturalarining magnit parametrlarining p -Si<B,Mn> namunalariга nisbatan ancha yuqori ekani, xususan, to'yingan magnitlanish (M_s) va qoldiq magnitlanish (M_r) mos ravishda 7–8 va 5–6 marta ortganligi aniqlangan, bu kremniy sirtida magnit markazlarning butun hajmga nisbatan ortishi bilan tushuntirilgan;

p^+ -Si<B,Mn> strukturalaridagi magnit momentining haroratga bog'liq o'zgarishini tavsiflovchi to'rt bosqichli (lokal ferromagnit ($T_1=1,8-30$ K), ferromagnit ($T_2=30-50$ K), superparamagnit ($T_3=50-290$ K) va paramagnit ($T_4>290$ K)) fizik model taklif qilingan, bunday faza o'tishlari haroratning oshishida magnit domenlarining yo'qolishi bilan tushuntirilgan;

olingan kremniy namunalarning magnit xossalarini ($\mu=(10-15)\mu_B$) tushuntiruvchi kremniy panjarasida marganes atomlarining klasterlarini hosil bo'lishining fizik modeli ishlab chiqilgan;

ilk bor, nikel kirishma atomlari bilan legirlangan kremniyda xona haroratida ($T=300$ K) submikron klasterlarning ferromagnit xususiyatlari namoyon bo'lishi ko'rsatib berilgan;

ilk bor, kremniy sirtining teksturalanishi natijasida nikel klasterlari kontsentratsiyasining ortishi bilan magnit parametrlar – to'yingan magnitlanish (M_s) 5–6 marta, qoldiq magnitlanish (M_r) 5–6 marta va koersitiv kuch (H_c) 3–4 marta oshganligi aniqlangan, bu sirt strukturasini boshqarish orqali yarimo'tkazgich magnit materiallarning xossalarini bosqarishga imkon bergan.

Tadqiqotning amaliy natijalari quydagilardan iborat:

namunalarning magnit xossalarini sezilarli darajada yaxshilash imkonini beruvchi kremniy kristallida nikel va marganes kirishma atomlarining nanoklasterlarini hosil qilishga mo'ljallangan maqbul texnologiya ishlab chiqilgan;

ilk bor nikel kirishma atomlari bilan legirlangan kremniy sirtining teksturalanishi materialning ferromagnit xususiyatlarini oshirishi ko'rsatildi, bunda to'yingan magnitlanish (M_s) 5-6 marta, qoldiq magnitlanish (M_r) 4-6 marta va koersitiv kuch (H_c) 2-4 marta ortishi kuzatilgan;

$T=150$ K haroratda bor kirishma atomlari bilan boyitilgan (p^+ -Si<B,Mn>) kremniy strukturasining ferromagnit xususiyatlari (p -Si<B,Mn>) kremniy namunalariга nisbatan: to'yingan magnitlanish (M_s) 7 marta, qoldiq magnitlanish (M_r) esa 5-6 marta yuqori ekanligi aniqlangan;

marganes bilan legirlangan p -turdagi kremniyda (p -Si<B,Mn>) magnit momentning haroratga bog'liq o'zgarishini tavsiflovchi fizik model ishlab chiqilgan. Model uchta fazani o'z ichiga oladi: ferromagnit ($T_1=1.8-30$ K), superparamagnit ($T_2=30-240$ K) va paramagnit ($T_3=240-300$ K) fazalar bo'lib, bu olingan namunalarning spintronikada keng harorat oralig'ida amaliyotda qo'llash mumkinligini asoslangan.

Tadqiqot natijalarining ishonchliligi zamonaviy usullar va o'lchov asboblari dan foydalanish, tajriba va hisoblash ma'lumotlarini nazariy natijalar hamda boshqa mualliflarning ishlari bilan solishtirish, shuningdek, olingan ma'lumotlarni zamonaviy fizik modellar asosida tahlil qilish orqali asoslandi.

Tadqiqot natijalarining ilmiy va amaliy ahamiyati.

Tadqiqot natijalarining ilmiy ahamiyati nikel va marganets kirishma atomlari bilan legirlangan (shu jumladan, bor bilan boyitilgan qatlam mavjud bo'lganda p^+ -Si) kremniyning magnit xossalari ta'sirining fizik mexanizmlari yaratilgan, hamda marganets kirishma atomlari hosil qilgan magnit nanoklasterlar tuzilishining fizik modellari ishlab chiqish bilan izohlandi.

Tadqiqot natijalarining amaliy ahamiyati shundan iboratki, yaratilgan texnologiya nikel va marganets kirishma atomlarining nanoo'lchamli klasterlari mavjud monokristall kremniy sirtini teksturalash imkonini berdi, bu spintronikada magnit datchiklar, magnit xotira elementlari va kuchli elektron qurilmalarda ishlatiladigan magnit kalitlarni yaratishda zarur bo'lgan faol sirt yuzasini sezilarli darajada oshirishga imkon yaratishi bilan izohlanadi.

Tadqiqot natijalarining joriy qilinishi. Nikel va marganets kirishma atomlari bilan legirlangan kremniyning magnit xususiyatlari bo'yicha olingan ilmiy natijalar asosida quyidagi yechimlar ishlab chiqildi va amaliyotga joriy etildi:

kremniy sirtiga vakuum sharoitida marganes kirishma atomlarini purkab hosil qilingan qatlamdan diffuziya yo'li bilan marganes kirishma atomlari bilan boyitilgan nanoklasterlarni ($N=10^{19} \text{ sm}^{-3}$ konsentratsiyada) hosil qilishga asoslangan yangi diffuzion texnologiya «FOTON» AJda amaliyotga joriy etildi («FOTON» aksionerlik jamiyatining 2024-yil 26-noyabrdagi 207-son ma'lumotnomasi). Natijada diodlar (magnit diodlari) va tranzistorlarni ishlab chiqarish jarayonini takomillashtirish va asosiy parametrlarini 2 marta yaxshilash imkonini bergan;

marganes kirishma atomlari bilan legirlangan kremniy (p^+ -Si) namunalarda magnit momentining o'zgarishini tavsiflovchi fizik modeli Buxoro davlat universitetining F2-FA-0-83921/F2-FA-F0383 raqamli "O'ta o'tkazgichlar va magnit materiallarda kuchli korrelyatsiyalangan o'zaro ta'sirlar va ularning kritik parametrlarini hisoblash» mavzusidagi fundamental loyihada foydalanilgan (O'zbekiston Respublikasi Oliy ta'lim, fan va innovatsiyalar vazirligining 2025-yil 29-yanvardagi 02/01-01-35-sonli ma'lumotnomasi). Natijada kritik past $T=1,8 \text{ K}$ haroratda aniqlangan to'yingan magnitlanish (M_s) boshlang'ich namunalarga nisbatan 4-5 marta, qoldiq magnitlanish (M_r) 7-8 marta ortgan;


Tadqiqot natijalarining aprobatsiyasi. Dissertatsiya ishi natijalari 15 ta xalqaro va respublika anjumanlarida ma'ruzalar qilingan va ilmiy seminarlarda muhokamalardan o'tkazilgan.

Tadqiqot natijalarining e'lon qilinganligi. Dissertatsiya ishining mavzusi bo'yicha olingan natijalar asosida 25 ta ilmiy ish nashr qilingan. Bulardan 7 tasi O'zbekiston Respublikasi Oliy ta'lim, fan va innovatsiyalar vazirligi huzuridagi Oliy attestatsiya komissiyasi tomonidan doktorlik dissertatsiyalarining asosiy ilmiy natijalarini chop etish uchun tavsiya etilgan jurnallarda, 2 tasi xalqaro jurnallarda e'lon qilingan bo'lib, shulardan 1 tasi Scopus bazasiga kiritilgan jurnallarda chop etilgan.

Dissertatsiyaning hajmi va tuzilishi. Dissertatsiya kirish qismi, to'rtta bob, xulosa va foydalanilgan adabiyotlar ro'yxatidan iborat. Umumiy hajmi 117 bet bo'lib, unda 50 ta rasm va 15 ta jadval keltirilgan.

DISSERTATSIYANING ASOSIY MAZMUNI

Dissertatsiyaning kirish qismida dissertatsiya mavzusining dolzarbligi va zaruriyati asoslangan, respublika fan va texnologiyalarni rivojlanishining ustuvor yo‘nalishlariga mosligi ko‘rsatilgan, muammoning o‘rganilganlik darajasi ochib berilgan, tadqiqotning maqsad va vazifalari, obyekti, predmeti va metodlari keltirilgan, ishning ilmiy yangiligi va amaliy natijalari bayon qilingan, tadqiqot natijalarini



1-rasm. $T_{diff}=850\text{ }^{\circ}\text{C}$ diffuziya harorati hamda $T=800\text{ }^{\circ}\text{C}$ da qo‘shimcha harorat bilan ishlov berilgandan so‘ng kremniy sirtida nikel kirishma atomlari klasterlarining taqsimoti.

amaliyotga joriy qilish, ishning aprobatsiyasi, nashr etilgan ilmiy ishlar, shuningdek dissertatsiyaning hajmi va tuzilishi haqida qisqacha ma‘lumotlar keltirilgan.

Dissertatsiyaning **“Kremniy hajmida hosil bo‘ladigan kirishma atomlarining nanoklasteri”** deb nomlangan birinchi bobida nikel va marganes kirishma atomlarining monokristall kremniyda diffuziyalanish xususiyatlari, magnit maydon va harorat ta‘sirida kremniyning magnit va elektrofizik xususiyatlarining o‘zgarishi ko‘rib chiqilgan. Mavjud nazariy va tajriba ma‘lumotlarning tahlil qilish asosida dissertatsiya ishini asosiy vazifalari shakllantirilgan.

Dissertatsiyaning **“Kremniy kristall panjarasida nikel va marganets kirishma atomlarining nanoklasterlarini shakllantirish texnologiyasi va tadqiqot usullari”** deb nomlangan ikkinchi bobi dissertatsiya ishini bajarishda qo‘llanilgan tajriba qurilmalari hamda

kremniyni nikel va marganets kirishma atomlari bilan legirlash texnologiyasiga bag‘ishlangan. Shuningdek, nikel va marganes atomlari bilan legirlangan kremniyning magnit hamda elektrofizik parametrlarini o‘rganish uchun qo‘llaniladigan zamonaviy tadqiqot usullari va tegishli qurilmalar tahlil qilingan.

Dissertatsiyaning **“Nikel kirishma atomlari bilan legirlangan kremniyning ferromagnit xususiyatlari”** deb nomlangan uchinchi bobida nikel kirishma atomlarining kremniyda klaster hosil qilish imkoniyatlari va olingan namunalarning magnit xususiyatlari ko‘rib chiqilgan.


Kremniyning kristall panjarasidagi nikel kirishma atomlari uning elektrofizik va magnit xossalari o‘zgarishida muhim rol o‘ynashi aniqlandi. Diffuziya harorati $T_{diff}=800-1200\text{ }^{\circ}\text{C}$ bo‘lganda, nikel kirishma atomlari kremniy panjarasida tugun va tugunlararo holatlarni egallab nano va mikroo‘lchamli klasterlarni hosil qilishi mumkinligi ko‘rsatildi.

Olib borilgan tadqiqotlar natijalari shuni ko‘rsatdiki, nikel kirishma atomlari klasterlarini tuzilishi va o‘lchamlari qo‘shimcha termik ishlov berish sharoitlariga bog‘liq ekan. Masalan, ishlov berish haroratining pasayishi nanoklasterlar o‘lchamlarining kattalashishiga olib keldi, klasterlar bir necha mikrometrgacha yetishi mumkin va aksincha harorat ortishi bilan kichiklashib nanometrlarda bo‘lishi

aniqlandi.

1-rasmda kremniy sirtida hosil bo'lgan nikel kirishma atomlarining klasterlarining shakllanishi keltirilgan. Klasterlarning o'lchami taxminan 50 nanometrdan 500 nanometrgacha ekanligi aniqlandi. Bu rasm harorat bilan ishlov berish jarayonlari natijasida hosil bo'lgan nikel kirishma atomlari klasterlarini kremniy sirti va hajmida tarqalish xususiyati va o'lchamlarini ko'rsatadi hamda ularning tuzilishi va fizik xossalarini tahlil qilishda asos bo'lib xizmat qildi.

2-rasmda $T=850^{\circ}\text{C}$ haroratda nikel kirishma atomlarining diffuziyasidan keyin kremniy sirtining topologiyasi ko'rsatildi.




2-rasm. $T=850^{\circ}\text{C}$ haroratda nikel kirishma atomlarini diffuziyasidan so'ng kremniy sirtining topologiyasi

Tadqiqot natijalari nikel atomlarining klasterlarini hosil bo'lishi natijasida kremniy sirti topologiyasini o'zgarishini ko'rsatadi. Rasmdan ko'rinib turibdiki, kremniy sirtida balandligi 32,8 dan 204,4 nm gacha bir jinsli bo'lmagan qatlam bilan qoplangan. 3D tasvirda alohida balandliklar aniq ko'rinib turibdi, bu nikel atomlarini lokal klasterlari hosil bo'lganligini ko'rsatadi.

Elektron paramagnit rezonans (EPR) yordamida nikel kirishma atomlari bilan legirlangan kremniyning magnit xossalarini o'rganish nikel kirishma atomlarining klasterlaridan tashkil topgan magnit domenlar hosil bo'lishini ko'rsatdi.


Hosil bo'lgan klasterlarning konsentratsiyasi va o'lchamlarini boshqarish magnitoelektronika uchun xususiyatlari yaxshilangan yangi materiallarni yaratish imkoniyatlarini ochib beradi.

Kremniy asosida yangi magnit materillar olish usuli namunalar sirtini teksturalashga asoslangan bo'lib, bu usul namunalarning sirt yuzasini sezilarli darajada oshiradi. Kremniy sirti yaqinida joylashgan nikel atomlarining yuqori konsentratsiyasi materialning magnitlanishini sezilarli darajada oshiradi.



3-rasm. Kremniyning EPR spektri
a) Si<Ni> namuna uchun b) boshlang'ich namuna

Kremniy sirtini piramidal struktura bilan teksturlash sirt yuzasini boshlang'ich tekislikka nisbatan kamida $\sim 1,5-2$ marta kattalashtirishi aniqlandi.




4-rasm. Kremniy sirtidagi tekstura


Kremniyning teksturalangan sirtidagi nikel kirishma atomlari hosil qilgan ferromagnit nanoklasterlar kremniyning tekis sirtidagi nanoklasterlarga nisbatan yuqori konsentratsiyada bo'lib, kuchliroq magnit xususiyatlarni namoyon qildi.

Tadqiqot natijalari shuni ko'rsatdiki, tarkibida nikel kirishma atomlari bo'lgan klasterlar kremniyning hajmda hamda nikel atomlari bilan sezilarli darajada boyitilgan sirt qatlamida hosil bo'ldi. Spintronikada ham hajmiy, ham sirtidagi nikel klasterlari mavjud kremniydan foydalanish mumkinligi ko'rsatilgan.

Tarkibida kremniy, kislorod va nikel, ehtimol, marganets atomlari bo'lgan magnit klasterlarni shakllantirish imkoniyati alohida qiziqish kasb etadi. 5-rasmda xona haroratida ($T=300$ K) nikel kirishma atomlari bilan legirlangan kremniy namunalarning ferromagnit xususiyatlari ko'rsatilgan. Rasmdan ko'rinib turibdiki, teksturlanmagan namunaning to'yinish magnitlanishi $M_s=0,019$ em/cm³ ga teng bo'lgan. 6-rasmda $T=300$ K va $T=400$ K haroratlarda magnit maydon kuchlanganligiga bog'liq holda teksturali Si<Ni> namunaning magnit momentining o'zgarishi ko'rsatilgan. Olingan natijalarning tahlili shuni ko'rsatadiki, harorat oshishi bilan magnit momentning qiymati biroz kamayishiga qaramay, uning o'zgarishi tekis xarakterga ega va asosiy parametrlari materialning magnit xususiyatlarining barqarorligini ta'minlaydigan qiymatlarga yaqin bo'ldi. Harorat $T=300$ K da to'yinish magnit



5-rasm. Nikel kirishma atomlari bilan legirlangan (teksturasiz) kremniy namunasining magnet momenti qiymati $T_1=300$ K haroratda




6-rasm. Nikel kirishma atomlari bilan legirlangan kremniy namunasining (teksturali) magnet momentining qiymati $T_1=300$ K va $T_1=400$ K haroratlarda

momenti $1,2 \cdot 10^{-2}$ emu/cm³ gacha, harorat $T=400$ K da $1,1 \cdot 10^{-2}$ emu/cm³ gacha yetishi aniqlandi.


Xulosa o‘rnida sirt yuzasi teksturalangan kremniyning magnet xususiyati bir xil haroratda ($T=300$ K) teksturalanmagan kremniy namunalarga nisbatan katta bo‘lar ekan.

Kichik maydonlar sohasidagi ma’lumotlarni qayta ishlash gisterezisning oddiy halqasini hosil bo‘lishini ko‘rsatadi (7-rasm va 8-rasm).

7-rasmda teksturasiz kremniy Si<Ni> namunasining $T=300$ K haroratdagi gisterezis halqasi keltirilgan bo‘lib, rasmdan ko‘rinib turibdiki, materialning koersitiv kuchi $H_c=20$ Oe bo‘lib, bu uning magnet yumshoq xususiyati va kichik magnetlanishga qarshiligini ko‘rsatadi, qoldiq magnetlanish esa $M_r=4 \cdot 10^{-3}$ emu/cm³ ga teng bo‘lib, bu to‘yinish magnetlanishidan taxminan ikki baravar kam.



7-rasm. $T=300$ K da nikel kirishma atomlari bilan legirlangan (teksturali) kremniy namunasining gisterezis halqasi.



8-rasm. Nikel atomlari bilan legirlangan teksturali kremniyning $T=300$ K va $T=400$ K dagi gisterezis halqasi.

8-rasmda nikel kirishma atomlari bilan legirlangan teksturali kremniy namunasining gisterezis halqasi $T=300$ K va $T=400$ K haroratlarda kuzatilgan tajriba natijalari keltirilgan. $T=400$ K haroratda koersitiv kuch $T=300$ K dagi $H_c=75$ Oe dan $H_c=37,5$ Oe gacha, qoldiq magnitlanish $M_r=2,4 \cdot 10^{-2}$ emu/cm³ dan $M_r=1,8 \cdot 10^{-2}$ emu/cm³ gacha kamayishi aniqlandi. Bu kristall panjaradagi atomlarning issiqlik tebranishlari kuchayib, magnit tartiblanishlarni susaytirishini ko'rsatdi.

Koersativ kuchning (H_c) kamayishiga qaramay, material yetarlicha o'z qiymatini saqlab qoldi, bu uni haroratga barqarorligini va yuqori haroratlarda magnit xotira qurilmalarida foydalanish yaroqliligini tasdiqlaydi. Gisterezis halqasining shakli simmetrik bo'lib, bu magnit xususiyatlarning barqarorligini ko'rsatadi. Umuman olganda, nikel kirishma atomlari bilan legirlangan kremniy xona haroratida ferromagnit tartiblanishi tajribada aniqlandi.

1-jadvalda nikel kirishma atomlari bilan legirlangan ikki turdagi (sirti teksturali va teksturasiz) kremniy namunalarning magnit parametrlari taqqoslangan.

Tadqiqot natijalari shuni ko'rsatdiki, $T=300$ K haroratda to'yingan magnitlanish (M_s) teksturlanmagan kremniy namunalarga nisbatan 6-7 marta, qoldiq magnitlanish (M_r) 6-8 marta va koersitiv kuch 3-4 martagacha katta bo'ldi. Bu o'zgarishlar sirt yuzasining ortishi materialning magnit xossalriga katta ta'sir ko'rsatishini tasdiqladi.

1-jadval

Kremniy namunalarning magnit parametrlari - sirti teksturali va teksturasiz

Harorat, K	M_s to'yingan magnitlanganlik, 10^{-2} emu/cm ⁻³	M_r qoldiq magnitlanganlik, 10^{-3} emu/cm ⁻³	H_c koersitiv kuch, Oe
300 (teksturasiz)	1.9	4	20
300 (teksturali)	12.06	24	75
<i>Nisbat</i>	6.35	6	3.75
400 (teksturali)	10.71	18	37.5
<i>Nisbat</i>	5.64	4.5	1.87

Dissertatsiyaning “**Marganets kirishma atomlari bilan legirlangan kremniyning magnit xususiyatlari**” deb nomlangan to'rtinchi bobida marganets kirishma atomlari bilan legirlangan kremniy namunalarning magnit va elektrofizik parametrlarini o'rganish natijalari keltirilgan.

O'tkazilgan tadqiqotlar natijalari shuni ko'rsatdiki, diffuziya harorati va vaqtini boshqarish orqali marganets kirishma atomlari bilan legirlangan kremniyning solishtirma qarshiligini $\rho = 1,3 \cdot 10^5$ Om·cm dan $\rho = 1,8 \cdot 10^2$ Om·sm gacha bo'lgan p -turdagi o'tkazuvchanlikda hamda $\rho = 1,1 \cdot 10^5$ Om·cm dan $\rho = 2,7 \cdot 10^3$ Om·cm gacha bo'lgan n -turdagi o'tkazuvchanlikka ega namunalarni olish mumkinligi aniqlandi.

O'tkazuvchanligi p -tur bo'lgan kremniy Si<B,Mn> namunalarda yuqori (100% dan ortiq) manfiy magnit qarshilik kuzatiladi. Shuningdek, Si<B,Mn> namunalarda magnit qarshilikning qiymati qo'yilgan elektr (E) va magnit (B) maydonlarining qiymati oshishi bilan sezilarli darajada oshishi aniqlandi. 9-rasmda $T=100-380$ K harorat oralig'ida Si<B,Mn> $\Delta\rho/\rho$ namunalarda magnit qarshiligining haroratga bog'liqligini o'rganishda

olingan tajriba natijalari keltirilgan.

2-jadval


Marganets kirishma atomlari bilan legirlangan kremniy namunasining elektrofizik xususiyatlari.

Namuna	Diffuziya harorati $T, ^\circ\text{C}$	O'tkazuvchanlik turi	Solishtir-ma elektr qarshilik, $\rho, \text{Om}\cdot\text{cm}$	Zaryad tashuvchilar konsentratsiya-si, p, n, cm^{-3}	Zaryad tashuvchilarning harakatchanligi, $\mu, \text{cm}^2/(\text{V}\cdot\text{s})$
Si	–	p	3	$6.7\cdot 10^{15}$	305
Si<B, Mn>	1095	n	$2.7\cdot 10^3$	$2.1\cdot 10^{12}$	1110
Si<B, Mn>	1090	n	$5\cdot 10^4$	$1.42\cdot 10^{11}$	1198
Si<B, Mn>	1085	n	$1.1\cdot 10^5$	$6.72\cdot 10^{10}$	962
Si<B, Mn>	1080	p	$1.3\cdot 10^5$	$3.3\cdot 10^{11}$	160
Si<B, Mn>	1075	p	$3\cdot 10^4$	$1.6\cdot 10^{12}$	95
Si<B, Mn>	1070	p	$1.5\cdot 10^4$	$3.9\cdot 10^{12}$	82
Si<B, Mn>	1065	p	$1.2\cdot 10^4$	$6.7\cdot 10^{12}$	76
Si<B, Mn>	1060	p	$7.4\cdot 10^3$	$1.24\cdot 10^{13}$	65
Si<B, Mn>	1055	p	$8.2\cdot 10^2$	$7.9\cdot 10^{13}$	88
Si<B, Mn>	1050	p	$2.7\cdot 10^2$	$1.3\cdot 10^{14}$	165
Si<B, Mn>	1045	p	$1.8\cdot 10^2$	$1.7\cdot 10^{14}$	192


O'tkazilgan tadqiqot natijalaridan ma'lum bo'ldiki, haroratning pasayishi bilan p -Si<B,Mn> namunalarida manfiy magnit qarshilikning qiymati ortdi va $T=240\text{ K}$ da o'zining maksimal qiymatiga ($\Delta\rho/\rho\sim 800\%$) yetdi. Haroratning keyingi pasayishi manfiy magnit qarshilikning qiymatini sezilarli tez pasayishiga olib keldi va $T=160\div 170\text{ K}$ haroratlarda magnit qarshilik ishorasining inversiyasi sodir bo'ldi, ya'ni manfiy magnit qarshilikdan musbat magnit qarshilikga o'tdi, musbat magnit qarshilikning qiymati haroratning bu sohasida haroratning qiymatiga kam bog'liq bo'ldi. Xona haroratida manfiy magnit qarshilikning 50% gacha yetadigan sezilarli kattaligi asosida magnit o'lchashlarda sezgir magnitarezistiv datchiklarni yaratish imkonini mavjudligini ko'rsatdi.

Tadqiqot natijalarining tahlili shuni ko'rsatdiki, $T=1,8\text{ K}$ haroratda marganes kirishma atomlari bilan legirlangan p -turdagi o'tkazuvchanlikka ega kremniy namunalarida ferromagnit xususiyatlar kuzatildi. Magnit momentning magnit maydonga bog'liqlik egri chizig'i gisterezis halqasi bilan xarakterlanadi, va bu ferromagnit tartiblanishni tasdiqladi.

$T=1.8\text{ K}$ haroratda olingan kremniy namunalarining gisterzis halqasining asosiy parametrlari aniqlandi: koersitiv kuchi $H_c=175\text{ Oe}$, qoldiq magnitlanishi $M_r=2,6\cdot 10^{-4}\text{ emu/cm}^3$ va to'yingan magnitlanish $M_s=1,3\cdot 10^{-3}\text{ emu/cm}^3$ ga teng bo'ldi. Marganes kirishma atomlari kremniyning kristall panjarasida, kovaklar bilan o'zaro ta'sirlashuvchi lokal magnit momentlarni hosil qilib ferromagnit holatga o'tishi aniqlandi.




9-rasm. p -Si<B,Mn> namunalari uchun magnit qarshiligining haroratga bogʻliqligi, bunda $E=200$ V/cm va $B=2$ Tl




10-rasm. $T=1.8$ K haroratda marganes kirishma atomlari bilan legirlangan p -tipdagi oʻtkazuvchanlikka ega boʻlgan kremniyning magnit momenti va magnit maydoni orasidagi bogʻliqlik

Marganets kirishma atomlari momentlar kovaklar bilan oʻzaro taʼsirlashuvchi, local ferromagnit holatga oʻtkazadi. 11(a)-rasmda $T = 150$ K haroratda p -Si<B,Mn> kremniy namunasining gisterezis halqasi tasvirlangan. Bu uning ferromagnit xususiyatga ega ekanligini va harorat oshgan taqdirda ham magnit xususiyatlarini saqlab qolishini koʻrsatdi.

Bunda toʻyingan magnitlanishning qiymati $M_s=2 \cdot 10^{-4}$ emu/cm³ ga teng boʻlib, yuqori tashqi maydondagi maksimal magnit momentiga mos keladi. Qoldiq magnitlanishning qiymati $M_r=8 \cdot 10^{-5}$ emu/cm³ ga teng boʻlib, tashqi magnit maydon olinganidan soʻng material 40% gacha magnitlanishni saqlab qolishi aniqlandi.



a




b

11-rasm. Marganets kirishma atomlari bilan legirlangan p -turdagi oʻtkazuvchanlikka ega kremniy namunasini magnit momentining $T=150$ K (a) va $T=300$ K (b) haroratlarda magnit maydonga bogʻliqligi

Aniqlangan koersitiv kuchning qiymati $H_c = 115$ Oe ga teng. Koersitiv kuch (H_c) — bu moddaning magnitlanishini nolga tushirish uchun unga qarama-qarshi yoʻnalishda qoʻllanilishi zarur boʻlgan magnit maydon kuchlanganligi qiymatidir.

Oʻtkazilgan tajriba natijalarini shuni koʻrsatadiki, harorat xona haroratigacha ($T = 300$ K) koʻtarilganda ham material $T=150$ K da olingan natijalarga nisbatan sezilarli magnitlanishini saqlab qoldi va barqaror magnit xususiyatlarini namoyon qildi. Bu maʼlumotlar olingan materillarni haroratga bogʻliq magnit qurilmalarda qoʻllashda istiqbolli ekanligini koʻrsatadi.

12-rasmda $T = 150$ K va $T = 300$ K haroratlarda n -turda n -Si<B, Mn> kremniy namunasi uchun magnit momentining magnit maydonga bogʻliqligi koʻrsatilgan. Rasmdan koʻrinib turibdiki, magnit momentining magnit maydonga bogʻliqligi chiziqli xarakterga ega boʻlib, gisterezis halqasining yoʻqligi materialning paramagnit ekanligini tasdiqlaydi. Shunday qilib, marganets kirishma atomlari bilan legirlangan n -turda kremniy namunalari $T=150$ K va $T=300$ K haroratlarda paramagnit holatda boʻlishini namoyon qildi. Bu esa uni paramagnit xususiyatlar talab qilinadigan tizimlarda qoʻllashda qulay ekanligini, biroq xona haroratida ferromagnit xususiyatlarga ega boʻlgan qurilmalarda foydalanish imkoniyatini cheklaydi.



12-rasm. Marganets kirishma atomlari bilan legirlangan n -turda kremniyning magnit momentini $T=150$ K va $T=300$ K haroratlarda magnit maydonga bogʻliqligi

Olingan tadqiqot natijalari shuni koʻrsatadiki, ferromagnit xususiyatlar faqat marganets kirishma atomlari bilan legirlangan p -tur (kovakli) oʻtkazuvchanlikka ega kremniy namunalarida kuzatildi. Bu xulosalar shuni tasdiqlaydiki, olingan materiallarning ferromagnit xossalari kovaklar konsentratsiyasiga bogʻliq boʻlar ekan.


Kremniy namunalarida ferromagnit holat nanooʻlchamli magnit klasterlar mavjud boʻlganda kuzatildi. Ularning konsentratsiyasi kritik past haroratlarda, yaʼni $T = 1,8$ K, $T = 150$ K va $T = 300$ K da kremniydagi marganets kirishma atomlarining eruvchanligi $N \sim 10^{15}$ cm $^{-3}$

gacha boʻlishi bilan bogʻliqligi aniqlanadi.


Marganets kirishma atomlari bilan legirlangan kremniyning ferromagnit xususiyatlarini oʻrganish shuni koʻrsatdiki, uning magnit xususiyatlari kristall panjaradagi kovaklar konsentratsiyasiga va oʻzaro taʼsiriga bogʻliq ekan. Ferromagnit holatning shakllanishiga marganets kirishma atomlari kremniy kristall oanjerasida tugun yoki tugunlar oraligʻida joylashishiga bogʻliq boʻladi.

Marganets kirishma atomlarining elektronlar bilan toʻldirilgan d -qobigʻi materialning ferromagnit xususiyatlarini belgilovchi magnit momentlarni hosil qiladi. Marganets kirishma atomlari bilan legirlangan p -tur oʻtkazuvchanlikdagi kremniy namunalarining ferromagnit xususiyatlari xona haroratida ($T = 300$ K) qoldiq magnitlanganlik $M_r=3,5 \cdot 10^{-5}$ emu/cm 3 va koersitiv kuch $H_c=87$ Oe qiymatlari bilan namoyon boʻlishi aniqlandi. Ferromagnit parametrlari kuchayishi harorat $T=150$ K

gacha pasayganda ($M_s=2 \cdot 10^{-4}$ emu/cm³, $H_c=115$ Oe) kuzatildi va harorat $T=1,8$ K da koersitiv kuchning maksimal qiymati $H_c=175$ Oe ga teng bo'ldi.



13-rasm. Kremniy namunasida chuqurlik bo'yicha bor va marganets kirishma atomlari konsentratsiyalarini taqsimoti



14-rasm. Marganets kirishma atomlari bilan legirlangan, p^+ -Si<B,Mn> strukturaning magnet momentini $T = 1.8$ K haroratda magnet maydonga bog'liqligi

